

TEMURIYLAR DAVRIDA IJOD ETGAN 3 OLIM VA ULARNING TAFSIRSHUNOSLIK SOHASIGA QO'SHGAN HISSALARI

*Тошкент ислом институти Тахфизул қуръон кафедраси ўқитувчи
Курбанов Содик Солиевич*

Kalit so'zlar: Amir Temur, Movarounnahr, hoshiya,, tafsir ilmi, olim, sharh, fiqh, nahv

Annotatsiya: O'z ijodi va faoliyatini asosan Movarounnahr shaharlari, xususan, Samarqandda, sohibqiron Amir Temur saroyida amalga oshirgan “Sodrush sharia” nomi bilan tanilgan Ubaydulloh Sodrush sharia alasg'ar ibn Mas'ud ibn Tojush sharia Mahmud ibn Sodrush sharia Ahmad ibn Jamoluddin Ubaydulloh al-Mahbubiy, Sa'duddin Taftazoniy Xurosonning Naso (hozirgi Turkmaniston, Ashxabod) shahridagi Taftazon qishlog'ida tug'ilgan, nahv, sarf, maoniy, bayon, usul al-fiqh hamda furu' al-fiqh (hanafiy va shofiiy), mantiq, aqida, tafsir, geometriya, astronomiya va boshqa shu kabi ilm sohalari bo'yicha yirik olim bo'lib, bugungi kungacha qirqdan ortiq asarlari mavjudligi aniqlangan. Va Xoja Porso Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hofiziy al-Buxoriy Movarounnahrning ulug' olimlaridan, Naqshbandiya tariqatining mashhur shayxi va Xoja Bahouddin Naqshbandning yaqin shogirdi bo'lgangan uch olim haqida ushbu maqolada so'z yuritiladi.

Temur va temuriylar davrida yashagan muarrixlar Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shoshiy, Mirxon, Ibn Arabshoh, Abdurazzoq Samarqandiy, Fasix Havofiy, Muiniddin Natanziy va boshqa qator mualliflarning aksariyati o'sha davrda yashaganliklari uchun bo'lib o'tgan voqealarni uning bevosita shohidlari sifatida jonli va ishonchli tarzda bayon qilganlar²¹. Demak, Amir temur ilm-fan borasidagi amalga oshirgan salmoqli ishlar barchaga, xususan tarixchi olimlarga ham oydek ravshan namoyon bo'lib turgan va ular bu harakatlarni bevosita shohidi bo'lish bilan birga o'z kitoblariga tarix o'laroq o'sha vaqtning o'zida bitib borganlar.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, davlat arbobi, balki o'z davri ilm sohalari bo'yicha yetuk olim bo'lgan. U mamlakatni rivojlantirishda ilm-fan va islam olimlarining ahamiyati beqiyos ekanligini yaxshi tushungan. Buni o'zi ham: “Saltanatda erishgan barcha muvaffaqiyatim va mustahkam joylarni fath qilishim – bularning barchasi Shayx Shamsuddin Fohuriy duosi, Shayx Zaynuddin Xavofiy himmati va Sayyid Baraka marhamati sharofatlari yordamida bo'ldi”, deb ta'kidlagan edi²². Zar qadrini zargar biladi, deganlaridek Sohibqiron shu tufayli u saroyida taniqli mutafakkirlarni jamlashga harakat qilgan.

Ma'lumki, tinch-totuvlik bo'lgan joyda rivojlanish va taraqqiyot bo'ladi. Mana shu jihatdan, Amir Temurning markazlashgan yirik davlat barpo etishi va Samarqand shahrini poytaxtga aylantirishi o'sha davrda juda katta tarixiy jarayon bo'lgan. Amir Temur

²¹Uvatov.U.Sohibqiron arab muarixlari nazdida. Toshkent: “Sharq”Nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. 1997. – B.5.

²²Abulabbos Shihobuddin Ahmad ibn Muhammad Dimashqiy. Ajoib al-maqdur fi tarix Taymur. – Bayrut: Muassat ar-risola, 1986. – B. 48. 13

Samarqand shahriga ko‘plab turli ilm sohalari bo‘yicha olimlarni to‘plagan va ularning ilm-fan bilan shug‘ullanishlariga sharoitlar yaratib berib, o‘ziga xos akademiyaga asos solgan. Mazkur olimlar qatorida hanafiy mazhabining yirik ulamolari ham bo‘lib, ular madrasa va davlat mansablarida faoliyat olib borganlar. Mo‘g‘ullar davridan keyin, Amir Temur davrida islomga davlat dini maqomining qaytarilishi yangi ulamolar tabaqalarining shakllanishiga olib keldi²³.

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va uning atroflarida yashab ijod etganlar mufassir olimlardan ayrimlarini quyida keltirib o‘tish mumkin:

“Sodrush sharia” nomi bilan tanilgan Ubaydulloh Sodrush sharia alasg‘ar ibn Mas’ud ibn Tojush sharia Mahmud ibn Sodrush sharia Ahmad ibn Jamoluddin Ubaydulloh al-Mahbubiyy (vaf. 747/1346 y.). U manbalarda faqih, muhaddis, mufassir, nahv va lug‘at olimi, adib, mutakallim, qadri baland, mavqeい ulug‘, ilm va odob bilan ozuqalangan, otasidan ilmni meros qilib olgan, imom, alloma, shariat qonunlarining himoyachisi, fiqhiy masalalar muammolarini yechuvchi, usululfiqh va furu’ulfiqhning kuchli bilimdoni, naqliy va aqliy ilmlar sohibi, deya ta’riflangan. U ilmni bobosi Tojush sharia Mahmud ibn Sodrush shariadan, u otasi Sodrush shariadan, u otasi Jamoluddin al-Mahbubiyydan, u shayx imom, muftiy Imom Zodadan, u Imoduddindan, u otasi Shamsul aimma az-Zaranjariydan, u Shamsul aimma as-Saraxsariydan, u Shamsul aimma al-Halvoiydan, u Abu Ali an-Nasafiyidan, u Muhammad ibn al-Fazldan, u Abu Muhammad asSubazmuniydan, u Abu Abdulloh Abu Hafs as-sag‘irdan, u Abu Hafs alkabirdan, u Muhammad ash-Shayboniydan, u Abu Hanifadan olgan. Ubaydulloh Sodrush sharia bobosi Tojush sharianing islom huquqiga oid «al-Viqoya» asarini sharhlagan. So‘ngra «al-Viqoya»ni qisqartirib, «anNiqoya – muxtasar al-Viqoya» deb nomlagan. Usulul fiqhga oid «at-Taqiyya» va uning sharhi «at-Tavzih»ni èzgan. Ajdod va avlodlarining qabrlari Buxoroda. Biroq bobosi Tojush sharia va onasining bobosi Burhonuddin Kirmonda vafot etib, u yerda dafn qilinganlar²⁴.

Sa’duddin Mas’ud ibn al-Qozi Faxruddin Umar ibn al-Mavlo al-Azim Burhoniddin Abdulloh ibn al-Imom al-Rabbaniy Shams al-Haqq, ad-Din al-Qoriy as-Samarqandiy al-Haraviy at-Taftazoniy al-Xurosoniydir²⁵. Ibn hajarning zikr etishicha uning ismi Mas’ud emas, balki Mahmuddir²⁶. Allomaning tavallud topgan yili to‘g‘risida manbalarda ikki xil ma’lumotni uchratish mumkin. Jumladan, ularning birinchisida 722/1322 yilni keltirilgan bo‘lib, bu fikrni Sharofuddin Roqimiyy, Ismoil Bosho al-Bag‘dodiy, Muhammad ibn Ali ash-Shavkoniy, Shamsuddin Muhammad ibn Abdurahmon as-Saxoviy va boshqalar qo‘llab quvvatlagan. Ikkinchisida esa 712/1312 yil keltirilgan bo‘lib, uni Xoyruddin Zirikliy, Shihobuddin Ahmad ibn Ali ibn Muhammad al-Asqaloniy, Jaloluddin Abdurahmon as-Suyutiyy, Shihabuddin Abulfallah Abdulhay ibn Ahmad ibn Muhammad ad-Dimashqiyy, Jaloluddin Abul Mahosin Yusuf ibn tug‘ro Burda kabi olimlar qo‘llaganlar.

²³ Alimov U. Samarqandda kalom ilmining rivojlanishi. – T.: Movarounnahr, 2008. – B. 59.

²⁴ Maxsudov.D. Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlari (XIII – XV asrlar).-Toshkent. 2019.-B.1-169.

²⁵ Palvanov U. The Light of islam, 4-son 2019 yil, 29-bet

²⁶ Shihobuddin Ahmad ibn Ali Asqaloniy. Ad-Durar al-Komina. – Bayrut: Dor al-jiyl, 1993. – J. IV.

Olimning vafoti haqida ham manbalarda 787/1385 yil, 789/1387 yil, 791/1389 yil, 792/1390 yil, 793/1391 yil, 794/1392 yil va 796–797/1394–1395 yil kabi turli xil sanalar ko‘rsatilgan. Chunonchi, mashhur hanafiy olimlardan Ahmad ibn Mustofa Toshko‘prizoda (901–968/1495–1561) Sa’duddin Taftazoniyning taniqli shogirdlaridan biri Fathulloh ibn Abdulloh Sharvoni Rumi Hanafiy (vaf. 857/1453 y.)dan rivoyat qilgan. Jumladan, Fathulloh Hanafiy Samarqandada ustozining qabrini ziyorat qilganligi va unga olim, xususan uning vafoti haqidagi ma’lumotlar bitilganligiga shohid bo‘lganligini aytgan. Allomaning 1322–1390 yillarda yashaganligiga ikkinchi asosli dalil bu – uning «Sharh at-Tasrif al-izziy» nomli asarini o‘n olti yoshida, ya’ni 738/1338 yili yozib tugatganidir. Bundan Sa’duddin Taftazoniy 722–792/1322–1390 yillarda yashaganligi ayon bo‘ladi²⁷.

Hidoyat belgisi, sara muftiyalar peshvosi, tariqat sirlarining bilimdoni, haqiqat eshiklarini ochuvchi, deya ta’riflangan, XIV asr mufassir, fahiq, muhaddis olimi Muhammad ibn Muhammad ibn al-Hasan ibn Ali Abu Tohir Hofizuddin at-Tohiriy. U Sodrush sharia Ubaydulloh ibn Mas’ud ibn Tojush sharia al-Mahbubiyyadan ilm olgan. Unga Sodrush shariadan 745/1345 yil zul qa’da oyida Buxoroda tasavvufda pirlikka ijozat berilgan. Abu Tohir 776/1375 yil sha’bon oyining oxirida «Fasl al-xitob» muallifi Xo‘ja Porso Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hofiziya izn bergen. U bu paytda yigirma yoshda edi²⁸.

Xoja Porso Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hofiziyy al-Buxoriy Movarounnahrning ulug‘ olimlaridan, Naqshbandiya tariqatining mashhur shayxi va Xoja Bahouddin Naqshbandning yaqin shogirdi. 756/1355 yilda Buxoroda tug‘ilgan. Porso (dindor) laqabini unga ustozi Bahouddin Naqshband bergen. Fiqh ilmini Abu Tohir Muhammad ibn Muhammad ibn al-Hasan at-Tohiriydan, u Sodr ash-sharia Ubaydulloh al-Mahbubiyyadan, u bobosi Tojush sharia Mahmud ibn Sodrush sharia Ahmaddin, u otasidan, u otasi Jamoluddin Ubaydullohdan, u Imom Zoda Imoduddin az-Zaranjariydan, u otasi Bakr az-Zaranjariydan, u Shamsul aimma al-Halvoiydan, u Abu Ali an-Nasafiydan, u Muhammad ibn al-Fazldan olgan.

Rivoyat qilinishicha, Bahouddin Naqshband Xoja Porsoni yuksak qadrlagan va Hijozga ketayotganlarida vafot etishidan oldin barcha omonatni unga topshirib, o‘z o‘rniga uni tayin etgan.

Xoja Porso ham 822/1420 yilda haj qilish niyatida yo‘lga chiqadi va Nasaf, Sag‘oniyon, Termiz, Balx, Hirot, Jom va boshqa shaharlarni ziyorat qiladi. Bu yerda unga katta hurmat ko‘rsatiladi. Hajni ado qilgach, kasallikka chalinadi va Madinaga otlanadi. Shu yerda mazkur yilning 25-zulhijja oyida vafot etadi. Juma kuni Abbas (r.a.)ning qabri yoniga dafn etiladi. Vafotidan so‘ng, uning o‘rniga o‘g‘li Abu Nasr Porso Mahmud ibn Muhammad o‘tiradi. U ham ilm va tasavvufda otasi kabi benazir edi.

Allomaning umumiy hisobda yigirmaga yaqin asarlari mavjudligi manbalarda aytilgan. Ulardan tafsirga oidi «Tafsir-i Qur’on» asari bo‘lib, uning 1:№ 2180 raqami ostidagi bir qo‘lyozma nusxasi O‘zR ShIda saqlanayotgan bo‘lib, u muallif qalamiga mansub, 3 beti esa,

²⁷Palvanov U. The Light of islam, 4-son 2019 yil, 29-bet

²⁸Maqsudov.D. Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlari (XIII – XV asrlar).-Toshkent. 2019.-B.1-170.

Abdurahmon al-Jomiyga tegishli. Mazkur tafsir Qadr surasidan Humaza surasigacha yozilgandir. Xoja Muhammad Porso tasavvuf peshvolaridan bo‘lgani uchun ham boshqa asarlari qatori tafsirida ham unga e’tibor qaratadi. Tafsirda 30-poraning bir nechtagina surasi tafsir qilinganiga guvoh bo‘lamiz. Bular: “Fotiha”, “Qadr”, “Bayyina”, “Zalzala”, “Adiyat”, “Qoria”, “Takasur”, “Asr” va “Humaza” suralaridir²⁹.

Movarounnahrda tafsir ilmi boshqa Islom o‘lkalaridagi kabi jadallik bilan rivojlangan hamda Qur’oni sharhlashda har xillik kuzatilgan. Bu o‘z navbatida Qur’oni tushunish va sharhlash bo‘yicha ma’sur tafsir, ra’y bilan tafsir qilish, aqidaviy yo‘nalishda sharhlash, tasavvufiy yo‘nalishda sharhlash, lug‘aviy sharhlash bo‘yicha mukammal maktablar shakllanganini ko‘rsatadi.

Yuqorida yuqorida zikr etilgan movarounnahrlik mufassir allomaning aksariyati bevosita hanafiy mazhabi vakillari sanaladi. Ushbu tafsirlarning aksariyat aqliy tafsir turlari sanalib, ular orasida tilshunoslik, ishoriy yo‘nalishidagilari, shuningdek to‘la hajmda yozilgan tafsir kitoblari, hoshiya va sharhlardan iborat bo‘lganlari yoki ayrim suralar sharhlanganlari mavjud. Ayrim mufassirlar kitob yozmasa-da, biroq tafsirga oid rivoyatlarni naql qilish, shu sohada shogirdlar tayyorlash bilan shug‘ullanganlar. Eng asosiysi, Qur’on sharhiga yozilgan ushbu kitoblarni keyingi avlod vakillari o‘qib-o‘rganib kelmoqdalar.

Umuman olganda, tafsir ilmi o‘rtta asrlarda Movarounnahrda rivojlanish va sustlashish kabi bosqichlarni bosib o‘tdi. Lekin aytish kerakki, tafsir sohasida o‘ziga xos jihatlarni kuzatish mumkin. Ushbu xususiyatlarni tafsir ilmida mavjud tafsir turlari asosida tahlil etish mumkin. Ma’lumki, tafsir ikkita katta turga – naqliy va aqliylarga bo‘linadi. Aqliy tafsirlar ham o‘z navbatida nahv va sarf, lug‘at, balog‘at va fasohat, tasavvuf, aqida va fiqh kabi qismlardan iborat.

²⁹ Maqsudov.D. Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlari (XIII – XV asrlar).-Toshkent. 2019.-B.1-174.